

JADID MA'RIFATPARVARLARINING OVRUPA MADANIYATIGA OID QARASHLARI

Raxmatullayeva Feruza

Qashqadaryo viloyati Dehqonobod tumani 69-IDUM ning ona tili va adabiyot fani
o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6815194>

Annotatsiya. Ushbu maqolada XIX asr oxiri XX asr boshlarida O'rta Osiyoning ijtimoiy-siyosiy, madaniy va adabiy hayotida yuzaga kelgan jadidchilik harakati namoyondalarining madaniyat haqidagi xususan, Yevropa madaniyatiga oid qarashlari yoritilgan. Maqolada jadid ma'rifatparvarlarining G'arb madaniyatining kelib chiqishi va ahamiyati haqidagi fikrlari ifodalangan. Shu bilan birga jadidlarning Yevropa madaniyatining umuminsoniy madaniyat sifatidagi ijobiy va salbiy qarashlari xulosalangan.

Kalit so'zlar: jadid ma'rifatparvarlari, Ovrupa, sharq, madaniyat, Fitrat, Gasprinskii, Haji Muin, Tavallo.

ВЗГЛЯДЫ СОВРЕМЕННЫХ ПРОСВЕТИТЕЛЕЙ НА ЕВРОПЕЙСКУЮ КУЛЬТУРУ

Аннотация. В данной статье рассматриваются взгляды представителей модернистского движения, возникшего в общественно-политической, культурной и литературной жизни Средней Азии в конце XIX - начале XX века, на культуру, в частности, о европейской культуре. В статье выражены мнения современных просветителей о происхождении и значении западной культуры. При этом обобщаются положительные и отрицательные взгляды на европейскую культуру как универсальную культуру модернистов.

Ключевые слова: современные просветители, Европа, восток, культура, Фитрат, Гаспринский, Хаджи Муин, Тавалло.

THE VIEWS OF MODERN ENLIGHTENERS ON EUROPEAN CULTURE

Abstract. In this article, the views of the representatives of the modernist movement, which arose in the socio-political, cultural and literary life of Central Asia at the end of the 19th century and the beginning of the 20th century, about culture, in particular, about European culture. The article expresses the opinions of modern enlighteners about the origin and importance of Western culture. At the same time, the positive and negative views of European culture as universal culture of the moderns are summarized.

Key words: modern enlighteners, Europe, east, culture, Fitrat, Gasprinsky, Haji Muin, Tavallo.

KIRISH

Hammamizga ma'lumki dengiz to'lqinlari bir tarafdan ikkinchi tarafga ko'chib yuradi. Bir kun bir tarafda to'lqin bo'lsa, ertasi ikkinchi tarafdan boshlanib avvalgi shovullab, qichqirib turgan joylari tinch va osuda bo'lib qoladi. Shunga o'xshash insoniyat orasida ham madaniyat to'lqinlari shovullab, quvishib yuradi. Bir asr ichida taraqqiyot va madaniyat dunyosida gullabyashnab yurgan jamiyat, neko'z bilan qaralsaki, ikkinchi asrda tanazzul dunyosiga yuzlanib, vaxshiylik olamining eng og'ir nuqtasiga borib yetadi. Buning sababi esa g'ayrat va shijoatning

kamayishi, ittifoqsizlik, insof va adolatning yo'qolishi, xalqning ilm-ma'rifatdan uzoqlashib, yomon ishlarga mayli ortishidandir.

Bir paytlar taraqqiyot zamini bo'lgan, bilim va hunarning o'chog'i bo'lgan Sharq XIX asrlarda tanazzulning eng chuqur botqog'iga tushib qolgandi. Sharq olami butun insoniyatni saodat va tinchlikka yetaklayotgan bir paytda G'arb g'aflat uyqusida yotar edi. G'arb din va cherkov taassublariga berilib bilmaslikning eng chuqur nuqtasiga tushgan paytda, musulmonlar Yunon, Eron, Hindistonda ko'milib yotgan madaniyatga qayta jon baxsh etdi. Hindiston va Yunonistonda unitilib qolgan bilim, hunar, san'at va falasafani bir joyga to'pladilar. Mana shunday buyuk madaniyat sohibi bo'lgan Sharq XVI asrdan boshlab asta-sekin tanazzulga yuz tuta boshladi. Bu davrda taraqqiyot tarozisi G'arb tomonga o'tdi. Yevropa fan-texnika taraqqiyotida eng birinchi saflarda yurdi.

TADQIQOT METODI VA METODOLOGIYASI

Ma'rifatparvar jadidlarning yozgan asarlariga nazar solsak, ular Ovrupa madaniyatini ikki xil talqin qilishgan. Birinchisi, Ovrupa madaniyatining sof madaniyat sifatida uning noqisligi bo'lsa, ikkinchisi, Ovrupada ilm-ma'rifat, fan-texnikaga bo'lgan e'tiborni Sharq mamlakatlariga namuna sifatida talqin etishgan.

Bugungi kunda Ovrupaning axloqsizlikdan iborat bo'lgan bir qator illatlari bizga kirib kelmoqda. Bu axloqsizliklar eng birinchi navbatda kiyinishda, yurish-turishda o'z aksini topmoqda. Zamonamiz qahramonlari – yoshlarimiz bu narsalarni zamon talabi, hozirgi madaniyat deya qabul qilishyapti. Eng achinarlisi shundaki, qariyb bir asrdan ziyodroq vaqt davomida Sharq dunyosida G'arb axloqsizligi keng quloch yoyib bormoqda. Ma'rifatparvar jadidlarimiz bundan bir asr muqaddam mana shu Ovrupaning axloqsizligi, manfaatparastligi kabi qator illatlarining Sharq dunyosiga tarqalishiga qarshi harakat boshlagan edi. Mana Shunday ma'rifatparvarlardan biri Abdurauf Fitrat hisoblanadi. Uning "Sharq siyosati" nomli maqolasida Ovrupaning olchoqligi haqida so'z boradi.

Ismoil Gasprinskiyning "Ovrupa madaniyatiga betarafona bir nazar" asarida muallif Ovrupa madaniyatining noqisligini uning ichki hayotidan, ya'ni aholisining turmush-tarzi, yashash sharoiti, insonlarning bir-biriga bo'lgan munosabatlaridan kelib chiqqan holda yoritgan bo'lsa, Fitrat bu masalaga boshqa tomondan nazar soladi. Abdurauf Fitrat maqolada bevosita Ovrupaning tashqi hayoti, ya'ni, mustamlaka hududlarida olib borgan siyosatidan kelib chiqqan holda bu madaniyatning vaxshiylikdan iborat ekanligini isbotlaydi. Muallif dunyo tamaddunini o'ziniki hisoblagan Ovrupaga nisbatan "madaniy yirtg'uchilar", "vaxshiy yirtg'uchilar" iboralarini qo'llaydi. Yuqorida aytib o'tilganidek Sharq tamaddun va taraqqiyot beshigi edi. Bir necha asrlardan keyin esa Sharq g'aflat va bilimsizlik olovlarida yonayotgan bir paytda Ovrupa endi uyqudan turar edi. Uyqudan uyg'ongan Ovrupa och qolgan bo'riday Sharq ustiga tashlandi. Bu haqda Fitrat shunday yozadi: "Ovrupalilar uzun va zararli g'aflat uyqusidan uyg'ongach, och qolgan yirtg'uchilar kabi Sharq ustiga otildilar. Dunyoning eng yog'li bo'lagi bo'lgan Sharq yirtg'uchi hayvonlar orasinda qolg'on semiz, lekin kuchsiz qo'y holatini oldi".

Ovrupaliklarning Sharq sari yurishlari o'zgalarning qonini to'kib, uylarini yondirib, o'z qozonlarini qaynatmoq uchun edi. Lekin ular bu niyatini boshqalarga bildirmasdilar, bu harakatlar Sharqqa madaniyat ulashmoq, bilim tarqatmoq niqobi ostida yashiringan edi. Bu tarix haqiqatini Fitrat ham ushbu maqolasida ta'kidlab o'tadi: "Sharq xalqi vaxshiydur unlarni madaniylashdurmak uchun borarmiz, Sharq xalqi bilimsizdir, unlarg'a bilim tarqatmoq uchun

borarmiz, deb o'z ishchi va dehqonlarini aldab, bizim ustimizga yuborur edilar". Fitrat bu gaplarning yarmi to'g'ri ekanligini aytadi. Chunki bu davrda Sharq bilim va hunardan mahrum bo'lib, yemirila boshlagandi. Lekin Ovrupaliklarning Sharqqa madaniyat berishlari haqiqat emasdir. Madaniyati noqis bo'lgan G'arb qanday qilib, Sharqqa madaniyat beradi. Ularning Sharqqa bergen qo'shtirnoq ichidagi madaniyatlari axloqsizlik, qimorbozlik, mayxo'rlik, Sharqning din odatlariga qat'ian to'g'ri kelmagan foxishaxonalaridir.

TADQIQOT NATIJASI

Ovrupaliklarning ayniqsa, ingliz va fransuzlarning niyatlari Sharqni tugatmoq edi. Inglizlarning Hindistonda olib borgan siyosatlari o'ta ketgan tubanlikdan iboratdir. Ovrupaning siyosat qonunlariga binoan har bir o'lkadan hukumatga keladigan xazina o'sha o'lkaning obodligi va taraqqiyoti uchun sarf bo'lishi lozim. Ammo bu shunchaki og'izdan-og'ziga ko'chib yuradigan gaplardir. Angliyaning Hindistondagi mustamlaka siyosatiga nazar soladigan bo'lsak, tamoman buning aksidir. O'sha yillari Hindistondan Angliyaga yilda to'rt yuz ellik million so'm foyda kelgan. Ammo bu foydaning yuz million so'mi Hindistonga kelar, shunda ham u yerdag'i ingliz bolalarining ta'limi uchun sarf qilinardi. Shuncha xazinadan hind xalqi uchun biror foyda bo'lмаган. Statistik ma'lumotlatlarga qaraganda, o'sha davrda har yili Hindiston aholisining yuzdan uchtasi ochlikdan vafot etgan. Mana madaniy Ovrupaning holi, foyda olayotgan yerli xalqning o'limiga sababchidir. Agar ular o'zlari aytganday madaniyatli, adolatli bo'lsalar, unda nega bu holatlarga e'tibor bermaydi? Bunday faktlarning o'zi Ovrupa vaxshiyligining isbotidir.

Fransiyaning mustamlakachilik siyosatiga nazar tashlasak, bundan-da og'ir holga duch kelamiz. "Fransiya jahongirlarining zulmlarini ko'rgan kishi anglizlarga rahmat aytmasdan tura olmaydi" – deya ta'kidlaydi, Fitrat. Fransiyaning eng chekka qishlog'ida qurilgan bir maktab, hatto Tunisning eng katta shaharlarida topilmaydi. Fransiyaning eng axmoq kishisiga berilgan so'z erki, Jazoirning eng ulug' faylasufiga ham berilmaydi,

Ma'rifatparvar jadidlar asarlarida Ovrupaning insofsizligi, adolatsizligi yoritilishi bilan bir qatorda ularning ilm-fanga, maorifga bo'lgan e'tiborlari va intilishlari ham o'z ifodasini topgan. Ular bu orqali Sharqni ham g'aflat uyqusidan uyg'otishni, taraqqiyotdan bahramand bo'lishni hamda G'arb tutqunligidan erkinlikka erishishni maqsad qilgan. Masalan, Fitratning "Chin sevish" dramasida Ovrupaning adolatsizligi bilan bir qatorda ularning ilm-fanga bo'lgan intilishlari ham alohida ta'kidlangan.

MUHOKAMA

Yana bir ma'rifatparvar jadid Hoji Muinning "Taassuflik holatdamiz" maqolasida esa g'arbliklar o'zlarining tinchlik va osoyishtaliklari uchun texnika va asboblar ixtiro qilgan bo'lsalar, dushmanidan himoyalanish uchun turli harbiy asboblar yaratganliklari aytib o'tiladi. Ovrupaning katta-katta universitetlarida insonning hayotiy ehtiyoji uchun zarur bo'lgan, iqtisod, tibbiyot, matematika, geometriya kabi bir qator dunyoviy fanlar, insonning ruhiy olamini poklaydigan musiqa o'rgatilsa, Sharqning mutaassiblari tomonidan bularning hammasi taqilangandi. Bularning taassubotga berilgan fikrdan boshqa narsa emasligini esa jadidlar o'z asarlarida ochiq oydin isbotlashgan, tanqid qilishgan. Gasprinskiyning "Farangiston maktublari" asarida farang bolalarining diniy ta'lim bilan bir qatorda, dunyoviy fanlarni o'rganishlari alohida yoritilgan. Bundan tashqari ma'rifatparvar jadidlar ovrupaliklarning til o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini ham o'zlarida joriy etishga harakat qilishgan. Bu masalalar ham ularning asarlarida o'z ifodasini topgan. Bu haqda Gasprinskiyning "Farangiston maktublari" asarida quyidagilarga

duch kelamiz: “Ajablanarlisi shundaki, bu nemislar mendan yaxshi arabcha, menchalik turkcha, biladilar! Yo Buxoro, yo Istanbulda tafsili ulum etgandir, degan fikr bilan savol berganimda, “Yo’q afandim, shu yerda, ushbu madrasada o’qidik”, dedilar”.

Jadidlar umuman, ovrupaliklarning faqatgina til o’rganishini emas, boshqa sohalarga bo’lgan qiziqish va intilishlarini, ilm ortidan tinmay izlanishlarini ham ijobiy baholashgan. Bu haqda Hoji Muin shunday yozadi: “Ovrupoiylar hozirda bilg’an ilmlarig’a qanoat qilmay g’ayrat va himmatlari soyasida kundan-kun yana taraqqiy etmoqdadirlar”. Ovrupaliklar tomonidan ixtiro qilingan temir yo’llar, telefon, telegraflar, suv osti kemalari, samalyotlar bularning barchasi ma’rifatparvarlar asarlarida o’z aksini topgan. Ular bularni ifodalash orqali Sharqda ham mana shunday taraqqiyot zamoni yetganini anglatishdan iborat edi. Sharqliklarni mana shunday kashfiyotlarni ixtiro qilishga da’vat etishgan. Tavallo tamonidan aytilgan bu she’r fikrimiz dalilidir.

Ko’r Ovrupo ahli, nedan tinmay o’qurlar ilmu fan,
 Ko’krak ochuq, sizlar chapan, inson bo’lolmaysiz hanuz.
 Ellik yil o’ldi ruslar Toshkand diyorin oldilar,
 Mizmor ilmin choldilar, sizlar cholomaysiz hanuz.
 Yozdi Tavallo hasratin, bildurdi sizga niyatin,
 Suygan ayo o’z millatin, demang yozolmaysiz hanuz.

Tavalloning yuqoridagi she’rida Ovrupa ilm-fani bilan birga ularning musiqaga, ya’ni san’atga bo’lgan qiziqishlarini bildirib o’tadi. Bundan ko’rinadiki, jadidlar Ovrupaning san’atga bo’lgan e’tiborlarini ham targ’ib etishgan. Chunki, san’at madaniyatning bir bo’lagi hisoblanadi. San’at qalbni poklaydi, yaxshilikka undaydi. Ovrupaliklar o’z ustida ishlab, izlab intilishlari natijasida ko’plab yutuqlarga erishdilar. Insonning jismoniy mehnatini bir necha barobar kamaytiradigan, og’irini yengil qiladigan mexanik mashinalar, unumsiz, kam yerlardan ko’p hosil olish usullarini ixtiro qildilar, amaliyotga tadbiq etdilar. G’arbning bunday marralarni zabit etishi esa birgina ilm va hunar tufaylidir. Mana shu ilmning samarasi o’laroq ular dunyoning yetakchi mamalakatlaridan. G’arb madaniyatiga oid bunday iliq qarashlar buyuk ma’rifatparvar siymolardan biri Munavvarqori asarlarida ham uchraydi. U ovrupaliklar ilm tufayli samolarda uchib, dengizlarda suzib yurgan bir vaqtida sharqliklar ahamiyatsiz bo’lgan sabablar tufayli nizolarga berilishini tanqid qiladi. Bu haqda uning o’zi shunday yozadi: “Ovrupa xalqi osmonga uchar ekan, bizda soch va soqol nizolari, ovrupolilar dengiz ostida suzar ekan, bizda uzun va qisqa kiyim janjallari, Orupa shaharlari butun elektrik bilan isitiliur va yoritilur ekan, bizda maktablarda jug’rofiya va tabiyot o’qitish, o’qitmaslik ixtiloqlari... davom etadi”. Shuni alohida ta’kidlash joizki, Munavvar qorining o’zi darsliklarida dunyoviy fanlarni o’qitishni joriy qilgan.

XULOSA

Globallashuv avj olayotgan bir paytda Sharq eski an’analar qobig’ida yashayotgan edi. Ularni bu yo’ldan ilm, hunar qutqarardi. Shu sababli ham jadidlar ilm-fan tufayli kundan-kun rivojlanayotgan Ovrupani namuna qilib ko’rsatishgan. Ovrupa madaniyatiga bo’lgan eng xolisona munosabatni Cho’lponning “Vatanimiz Turkistonda temir yo’llar” maqolasida ko’ramiz. Ushbu maqolada muallif Ovrupaning buzuq axloqidan namuna olmasdan, uning ilm-fanga hunar va sanoatga bo’lgan madaniyatlariga taqlid qilishni ta’kidlaydi. Bu haqda shunday yozadi: “Ovrupaning mo’dosi, shishasi va buzuq axloqi sizlarni xonavayron, bevatan, asir, qul qiladur bundan saqlaningiz! Ovrupaning maktab, madrasa, ilm-fan, sanoat, hunarg’a o’xshash

madaniyatlari sizlarni obod, ma'mur, olim qilub, johillikdan, asorat qulligidan qutulturadur. Birodarlar, ko'zlariningizni ochib, yaxshi o'ylangizlar!”. Jadid namoyondalarining asarlarini o'rgangan holda, ularning Ovrupa madaniyatiga doir qarashlari bizningcha quyidagilardan iborat:

- Ovrupaning axloqsizligi, insofsizligi,adolatsizligi, vaxshiyona siyosati qoralaganlar;
- Ovrupaning fan-texnika, madaniyat va maorifga bo'lgan intilish va izlanishlari, harakatdan to'xtamasliklari, hunar ortidan quvishlari kabi hislatlarini targ'ib qilishgan;
- Ovrupaning ayollar ta'limga ham alohida e'tibor berishini ham alohida ta'kidlashgan;
- San'atga bo'lgan qiziqishlarini Sharq xalqlariga ham tadbiq qilishga harakat qilishgan.

REFERENCES

1. A.Fitrat. Sharq siyosati.
2. I.Gasprinskiy. Hayot mamot masalasi. – T.: Ma'naviyat, 2006, 155-bet.
3. Hoji Muin. Tanlangan asarlar. – T.: Ma'naviyat, 2005, 64-bet.
4. Tavallo. Ravnaq ul-islom. – T.: Fan, 1993,51-bet.
5. M.Abdurashidxonov. Tanlangan asarlar. – T.: Ma'naviyat, 2003, 175-bet.